

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi Bank-
moliya akademiyasi rektori v.v.b**

E.A.Xoshimov

2022-yil



«INGLIZ TILI» FANIDAN MAGISTRATURAGA KIRISH SINOVLARI

DASTURI

Fan bo'yicha magistraturaga kirish sinovlari dasturi Bank-moliya akademiyasi Kengashining 2022-yil « ____ » _____dagi ____ - sonli majlis bayonnomasi bilan ma'qullangan.

“TAVSIYA ETILGAN»

“Biznes ingliz tili” kafedrasida
muhoqama qilingan va tavsiya etilgan
Kafedra mudiri _____ M.Sh. Ruzmetova
(kafedra majlisining “ ____ ” - sonli bayonnomasi
“ ____ ” _____ 2022-yil)

Tuzuvchi:

M.Sh. Ruzmetova

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Biznes ingliz tili” kafedrasida dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Taqrizchi:

Z.A.Pulatova

“Biznes ingliz tili” kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.f.d.
(PhD)

Kirish

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha davlat standartlari talablaridan kelib chiqib tuzilgan. Ushbu dastur Bank-moliya akademiyasi mutaxassisliklari bo‘yicha ta‘lim olmoqchi bo‘lgan talabgorlarning ingliz tili fanidan kirish imtixonini topshirish uchun mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari” qaroriga binoan xorijiy tillarni o‘rgatishni ta‘lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta‘lim sifatini tubdan oshirish, hamda aholining xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish zarurligi qayd etilgan. Shu bilan birga, davlat xizmatchilari tomonidan xorijiy tillarni o‘zlashtirish darajasini oshirish hamda davlat organlarini yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar bilan to‘ldirish muximligi ta‘kidlab o‘tilgan.

Jahon tillari orasida ingliz tili o‘ziga xos mavqega ega. Ushbu xalqaro til dunyo miqyosida muloqot vositasiga aylangan. Ayni damda xalqaro miqyosda barcha mintaqalarda kommunikativ tarzda til o‘rgatishga e‘tibor qaratilmoqda. Vatanimizda ingliz tilini o‘rganishga alohida e‘tibor berilayotgani bejiz emas. Shuningdek, umubashariy jarayon bizning o‘lkalarga ham yoyila boshladi. Oxirgi o‘n yillikda chet tillarini o‘rganishga katta e‘tibor berilib, aholi orasida unga e‘tibor kuchaymoqda. Shu bilan bir qatorda chet tillarini bilish shaxsiy hayotda va kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, so‘nggi davrda ko‘pchilik biznes-kelishuvlar ingliz tilida olib borilishga e‘tibor qaratilmoqda. Ingliz tilini mustaqil muloqot darajasida bilish shaxsga xalqaro miqyosda keng imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, sayohat qilish, ish safari yoki boshqa mamlakatlardan kelgan vakillar bilan muloqot qilish va boshqalar. Zero, ko‘plab ilmiy adabiyotlar ingliz tilida yozilgan bo‘lib, ushbu imkoniyatlar tinlovchilarga kasbiy malakalar bo‘yicha tilni mukammal ravishda o‘zlashtirishga katta yordam beradi. Shuningdek, shuni ta‘kidlab o‘tish kerak-ki, ilm-fan va texnologiya soxasidagi so‘nggi va eng ilg‘or kashfiyotlar ta‘lim rivojlangan mamlakatlar universitetlarida amalga oshirilib, ularda ingliz tili ilmiy diskurs tili hisoblanadi.

Ingliz tilini bilish muhimligini aniqlash qiyin masalalardan biridir. Rivojlanayotgan jamiyatni chet tillarsiz tasavvur qilish qiyin. So‘nggi yillarda bitiruvchilardan bir qancha chet tillarni bilish talab qilinmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda barcha sohalar uchun ingliz tilini samarali o‘rganish/o‘qitishga muhim e‘tibor qaratilmoqda. Natijada, bo‘lajak iqtisodchilar chet el investitsiyalarini o‘z bizneslariga ko‘proq jalb qilib, ular bilan hamkorlik aloqalarini yaxshiroq o‘rnata oladilar. Bu esa O‘zbekistonni jaxondagi mavqeini oshishiga va iqtisodiy holatini yaxshilanishiga va iqtisodiyot sohalarni rivojiga xizmat qiladi.

DASTUR MAQSADI

Mazkur dasturning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasiga kiruvchilarni “Ingliz tili” fanidan topshiriladigan test savollarini tuzilishi va mazmuni bilan tanishtirishdir.

“Biznes ingliz tili” fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va mahoratlarga ko‘yiladigan talablar

Oliy ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi davlat ta’lim standartiga muvofiq ravishda “Ingliz tili” fanini topshiruvchilarning bilim va ko‘nikmalarga quyidagi talablar qo‘yilgan:

- Umumiy ingliz tili (General English) bo‘yicha asosiy so‘z birikmalariga ega bo‘lish;
- Bakalavriat darajasida dasturi asosida asosiy grammatik qoidalarga ega bo‘lish;
Tekshiriladigan ko‘nikmalar: leksik va grammatik birliklarni kontekstda to‘g‘ri qo‘llay olish; perefrazani (bir xil ma’noning har xil leksik va grammatik vositalar orqali berilishini) tushunish.

“Ingliz tili” fanidan test savollari leksik-grammatik yo‘nalishda bo‘lib, quyidagi bilimlarni tekshirishga yo‘naltirilgandir:

Lingvistik bilimlar:

1) grammatik nuqtai nazardan:

- gap bo‘laklari va qismlari haqidagi printsipial tafovutlarni bilish;
- ingliz tili gaplarini asosiy ketma-ketligini bilish;
- inkor (tasdiq) gaplarni ifoda qila olishni bilish;
- gapdagi vaqtlarni, modallikni, aktiv minimumlarni bilish;
- maqsad, baho, munosabat kabilarni bildirishni hamda asosiy til va gap formulalarini bilish.

2) leksik nuqtai nazardan:

- 1000ta aktiv leksika va 600 ta mutaxassislikka doir leksikani bilish;
- notanish, murakkab mazmunli ibora va so‘zlarni mustaqil ravishda tushuntira olishni bilish;
- mutaxassislikka doir kitoblar bilan ishlash, ya’ni ko‘p ishlatiladigan frazeologizm, qisqartma va belgilar bilan ishlashni bilish.

ASOSIY QISM
GRAMMATIK MINIMUM

Grammar Tenses

Present Continuous vs. Present Simple (I am doing and I do)
Past Continuous vs. Past Simple (I was doing and I did)
Present Perfect (I have done)
Present Perfect Continuous (I have been doing)
For and since (When ...? and How long...?)
Past Perfect (I had done)
Have and have got
Used to (do)
Present tenses (I am doing / I do) for the future
To be going to (do)
Future Simple

Modals

Can, could, (be) able to
Could (do) and could have (done)
Must and had to
May and might
Should and need
Had better It's time
Would
Can / could / would you.....?

Conditionals

Conditionals I, and II (If I do and If I did)
If I knew I wish I knew
If I had known I wish I had known
Wish

Passive Voice

Passive (is done / was done / be done / been done / being done)
It is said that He is said to He is supposed to
Have something done

The sequence of tenses. Reported speech

Sequences of tenses
Reported speech (He says that / He said that)

Infinitive and Gerund

Verb + ing (enjoy doing/stop doing)

Verb + to (decide to / forget to)

Verb + object + to (I want you to...)

Verb + ing or to(remember, regret)

Prefer and would rather

Preposition (in / for / about) + ing

Be/get used to something

Verb + preposition + ing (succeed in – ing) / accuse somebody of – ing)

Expressions + ing

Complex object after verbs of sense perception (see somebody doing and see somebody do)

- ing clauses (feeling tired, I went to bed early)

Articles and nouns

Countable and uncountable nouns

A / an and the

Names with and without the

Singular and plural

Noun+ noun (football / headache)

Pronouns and determiners

Reflexive pronouns (myself/yourself...)

A friend of mine My own house On my own / by myself

There ... / it ...

Some and any

No / none / any

Much / many / little / few / a lot / plenty

All / all of, most / most of, no / none of

Both / both of, neither / neither of, either/ either of

All, every, and whole

Each and every

Relative clauses

Relative clauses (who / that / which / whose / whom / where)

Relative clauses: extra information

- ing and –ed clauses (the woman talking to Tom, the boy injured in the accident)

Adjectives and adverbs

Comparative and superlative degrees of adjectives and adverbs

Adjectives ended in –ing and – ed (boring/bored)

Adjectives: a nice new house, you look tired

Conjunctions and prepositions

Although / though / even though / in spite of / despite

In case

Unless / as long as / provided

As (as I walked along the street.... / as I was hungry...)

Like and as

Like / as if / as though

For, during and while

By and until By the time...

Prepositions of time

Prepositions of place

Phrasal verbs

Phrasal verbs in / out

Phrasal verbs on / off

Phrasal verbs up / down

Phrasal verbs away / back

So‘z yasovchi qo‘shimchalar

Qo‘yidagi qo‘shimchalar qo‘shilishi bilan yangi so‘z turkumlari hosil qilinadi:

Otlar: - er, -or, -ist, -ian, -ee, -age, -al, -ance, -ence, -ant, -ent, -dom, -hood, -ion, (-ation, -tion, -sion, ssion), -ment, -ness, -our, -ship, -th, -ty (-ity, -ability, -ibility), -ure (--ture, - sure, -ssure, -zure);

Sifatlar: - able, -ible, -al, -ant, -ent, -ary, -ory, -en, -ful, -ic, ish, -ive, less, -ous, -y;

Fe‘llar: -ate, -ute, -en, -fy, -ify, -ize, -ise;

Ravish: -ly, -ward, -wards;

Sonlar: -th.

LEKSIK MINIMUM

O‘zbekiston va Buyuk Britaniya (Uzbekistan and The UK)

Geografik joylashuvi, iqlimi, iqtisodiyoti, aholisi, shaharlari, buyuk shaxslari.

Ta‘lim tizimi (Education)

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, mening universitetim.

Kasblar (Professions)

Mutaxassislik, hamkorlik va ish doirasi, ish haqi va ijtimoiy himoya, ishsizlik va bandlik muammolari.

Sportni rivojlantirish (Sport Development)

Sport va sog‘liq, sport bilan shug‘ullanish uchun sharoitlar, musobaqalar, turnirlar, chempionatlar, yozgi va qishki Olimpiya o‘yinlari, mashhur sportchilar, O‘zbekiston va til o‘rganilayotgan mamlakatdagi mashhur sport turlari.

Davlat va jamiyat (State and Society)

Davlat tuzilishi, mamlakat, davlat boshqaruv organlari.

Ommaviy axborot vositalari (Mass Media and IT)

Jamiyatni rivojida ommaviy axborot vositalarini (gazeta, jurnal, radio, televidenie, internet) roli.

Ekologiya (Ecology)

Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish muammolari.

Madaniyat (Culture)

An'analar, urf-odatlar, bayramlar, yozuvchilar, musiqachilar, raqqoslar, rassomlar, aktyorlar.

Halqaro tashkilotlar (International Organizations)

MT, YUNESKO, Jahon banki, Interpol, Yevro ittifoq, SHXT.

Biznes va ishbilarmonlik (Business and Entrepreneurship)

Biznes va ishbilarmonlikni rivoji, biznesda raqobat, savdo xizmatlari, kommertsiya.

Moliya tizimi (Financial System)

Bank ishi, moliya, soliqqa tortish, investitsiyalar, sug'urta, pul birliklari, valuta ayirboshlash.

Sayohat (Travelling)

Samolyot, poezd, moshinada sayohat, transportda xizmat ko'rsatish, chipta xarid qilish, bojxona deklaratsiyasi, bojxonada.

O'QISH NUTQIY FAOLIYAT UCHUN (Reading skill)

1. Iqtisodiy mavzularga oid autentik materiallarni o'qib tushunish uchun turli hajmdagi matnlarni tanlash va ularga tegishli topshiriqlar;
2. Maxsus ma'lumot olish, to'liq tushunish uchun qisqa gazeta maqolalaridan, internet matnlaridan va tarkibida kasbga oid ba'zi terminlar bo'lgan matnlarga muvofiq topshiriqlar bankini yaratish.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. Digby Beaumont, Colin Granger *English Matters*, Macmillan, 2005.
2. M. Hewings *Advanced Grammar in Use*, Cambridge, 2005.
3. R. Murthy *English Grammar in Use*, Cambridge, 2012.
4. John Allison with Paul Emmerson *The Business*, Macmillan.
5. David Cotton, David Falvey, Simon Kent *Market Leader*, Pearson Longman

Internet saytlari

1. www.better-english.com
2. www.exerciselist.com.
3. www.uzeducation.com

6. www.uzbekistantoday.uz
7. www.teachingenglish.org.uk- Teaching English British Council
8. www.onestopenglish.com- one stop English
9. www.businessenglishonline.net- Macmillan Business English
10. www.teachertrainingvideos.com- Teacher training Videos
11. www.bbc.co.uk/schools/teachers- BBC news
12. www.Grammarly.com/Grammar -English Grammar

